

EMBOLIYA VA TROMBOZNING PATOLOGIK-ANATOMIK XUSUSIYATLARI.

Hamroyeva N.U

*ToshDTU, Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti,
davolash ishi yo'nalishi 207-guruh*

Shag'iyazova L.M

*Ilmiy rahbar: ToshDTU, Anatomiya, gistologiya,
patologik anatomiya kafedrası assistenti*

Dolzarbliği: *Emboliya va tromboz-qon aylanish tizimining eng xavfli patologik holatlaridan bo'lib ,to'qimalarda qon oqimining to'silishi natijasida gipoksiya va nekroz rivojlanadi .Bu jarayonlar yurak, o'pka miya va boshqa organlarda morfologik va funksional buzilishlarga olib keladi. Shu sababli ularning patologik –anatomik xususiyatlarni o'rganish kasalliklarini patogenezini tushinsh va samarali davolash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.*

Maqsad: *Emboliya va tromboz natijasida organizm organlarida yuzaga keladigan morfologik va strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash, ularning rivojlanish mexanizmlarini tadqiq etish hamda ushbu jarayonlarning metabolik kasalliklar patogenezidagi rolini tizimli ravishda yoritish. Shu orqali kasalliklarni erta aniqlash, profilaktika va davolash choralarini ilmiy asosda takomillashtirish.*

Materiallar va qo'llanilgan usullar: *Mikroskopik tahlil uchun organlarning parafin bloklarda saqlangan to'qima bo'laklari olinib ,gistologik tekshiruvlar o'tkaziladi .Shuningdek ,kasallikning davomiyligi, simptomlari ,og'irligi va lokalizatsiyasi haqidagi klinik ma'lumotlar ham tadqiqotda qo'laniladi .Makroskopik tekshiruvlarda organlarni o'lchami ,rangi,tuzilishi ,tromblar va emboli mavjudligi ,shish va nekroz o'choqlari baholanadi.Statistik va tasnifiy tahlilida tromboz va emboliya joylashuvi ,chastotasi va oqibatlari o'rganiladi.*

Tromboz va emboliya natijasida qon tomirlarida qon oqimi to'xtab ,organlarda gipoksiya yuzaga keladi .Miya va yurak to'qimalarda nekroz o'choqlari paydo bo'lishi mumkin .O'pka emboliyasida o'pka arteriyasini to'sib ,respirator buzilishlariga olib keladi .Jigar va buyraklarda qon aylanishi sekinlashadi ,ba'zi hollarda funksional buzilishlar rivojlanadi.Tomir ichidagi tromblar va emboluslar morfologik jihatdan aniq ko'rinadi ,ular to'qimalarda organizm javobini-shish degeneratsiya va ba'zan fibroz rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Klinika tahlilida kasallikning davomiyligi va og'irligi bilan morfologik o'zgarishlar solishtiriladi va bemorlardagi simptomlar- nafas qisishi ,yurak ritimi buzilishi kabi belgilar bilan bog'lanadi. Tadqiqot natijalari statistik va tasnifiy tahlil qilinib ,tromboz va emboliyaning joylashuvi ,chastotasi va oqibatlari aniqlanadi . Shu orqali tromboz va emboliyaning organlarga ta'siri,gipoksiya darajasi va patologik o'zgarishlar umumiy tendensiyasi baholanadi.

Xulosa: Emboliya va tromboz organizmning barcha hayotiy organlarida morfologik va funksional buzilishlar keltirib chiqaradi. Tromblar va emboluslar qon aylanishni to'sib ,gipoksiya va nekroz rivojlanishga sabab bo'ladi. Ushbu jarayonlarining patogenizini tushunish ,erta aniqlash va samarali davolash choralarini qo'llash klinik va profilaktik jihatdan katta ahamiyatga ega.